

UDK: 634.21: 632.9

BOG' AGROBIOTSENOZIDA ZARARKUNANDAGA QARSHI KIMYOVIY PREPARATLARNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI.

Akmalova Durдона O'tkirovna

O'simliklar himoyasi va karantini ilmiy-tatqiqot instituti tayanch doktoranti.

Abstract. *Our studies were carried out on experimental fields and orchards to determine the effectiveness of the chemical against the spread, damage and reproduction of the peach juice-sucking pest (myzodes persicae). The results of our experiment were observed during the trial period.*

Key words. *Sucking pests, peach juice, chemical, medicinal, biological effectiveness.*

Kirish. Butun dunyo qishloq xo'jaligida mevali bog'larda uchraydigan so'ruvchi hamda kemiruvchi zararkunandalariga qarshi kurashish hamda kamaytirish global muammo sifatida qaraladi. Ozbekistonda ham keying yillarda zararkunandalarga qarshi kimyoviy biologik kurashlar olib borilib samarali natijaga erishyapti, shuningdek bog'dorchilik maydonlari kengayotgani xususan, intensiv bog'lar barpo qilinayotganligi sababli, respublikamizda qishloq xo'jalik ekinlarini joylashish strukturasida ro'y berayotgan o'zgarishlar yillar mobaynida oziqlanish zanjiri asosida vujudga kelgan organizmlar tur tarkibining o'zgarishi, bog'dorchilikda meva hosilini zararkunandlardan saqlab qolishda, ularga qarshi kurash tadbirlarining ahamiyatini oshirib, unga ilmiy asosda yondashishni taqozo qiladi. Buning uchun yuqori sifatli, zararkunanda va kasalliklarga qarshi chidamli navlarni ekish, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish va zararli organizmlarga qarshi kurash choralarini ko'rish zarur. Bunda zararkunanda hasharotlarga qarshi ekologik xavfsiz kurash choralarini olib borish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekistonda mevali bog'larida 200 dan ortiq zararkunanda va 50 dan ortiq kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'lar uchrashi qayd qilingan. Birgina urug' hamda danak mevali bog'larda so'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalarning mavsumda zararli ta'siri tufayli 30-40% hosil nobud bo'ladi. Ushbu zararkunandalardan komstok qurti, qalqondorlar, shiralar, buzoqbosh qo'ng'izlar, barg o'rovchilar, mevaxo'rlar kabi

zararkunandalar yil va mavsum davomida bir necha marta avlod berib jiddiy zarar keltirishi tadqiqotlar davomida aniqlangan (Sh.Xujaev 2014).

So'ruvchi zararkunandalardan urug'mevali hamda danak mevali ekinlarga zarar keltiradigan shaftoli shirasi (*Myzodes persicae*) mevali daraxtlardan shaftoli, olma hamda olxo'rida bahor oylarida yangi ochilgan barg o'suv nuqtalarida hamda issiqxonaga jiddiy zarar keltiradi va sabzavot ekinlarida ham ko'plab uchraydi. Kuchli zararlangan daraxtlar mevasi kamayib hatto meva solmaslikga ham olib keladi hamda keyingi yilgi hosiliga ham sezilarli ta'sir etadi. Zararlangan daraxtlar yaxshi o'smaydi. Natijada, yosh nihollar o'sishi va rivojlanishi sekinlashib, aksariyat hollarda qurib qolishiga olib keladi.

Tadqiqot materiallari va uslubi. Shaftoli shira (*Myzodes persicae*)sining ko'chat ekinlaridagi zararlilik darajasini va ularga qarshi yangi kimyoviy vositalarning aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar 2023-2024 yillarda Toshkent viloyatining Toshkent tumanida joylashgan "Istiqlol olmalari" MCHJ mevali bog'ida tajriba olib borilib, shiralarning miqdorlari bo'yicha olma hamda shaftoli daraxt ko'chatlarining zararlanishi tahlil qilindi. Shaftoli shirasining tarqalishi va zararini monitoring qilish va unga qarshi kimyoviy preparatlarning samaradorligi umumqabul qilingan uslublar asosida tahlil qilindi (Aleksidze G.N. 1983, Xo'jaevSh. 2004.).

Urug' mevali bog'larning xosildorligini oshirish va zararkunandalarga qarshi kurashda uyg'unlashgan kurash usulidan foydalanishni maqul degan qarorga keldik. Olib borgan tadqiqotlarimiz davomida turli guruhlariga va turli xil ta'sir etish mexanizmiga ega bo'lgan kimyoviy vositalardan zararkunandalar biologiyasi va fenologiyasiga tayangan xolda tadqiqotlar olib bordik.

Toshkent viloyati Toshkent tumanida joylashgan "Istiqlol olmalari" fermer xo'jaligining ikki gektarli shaftoli bog'ida yetishtirilayotgan olmaning "simarinka" va "golden" navlari hamda shaftolining "besh yulduz" navlarida shaftoli shiralariga qarshi erta bahorda fevral oyida daraxt taglari ohaklanadi mart oylarining o'rtalari (kurtaklar xali barg ochmasdan) "Endjeo 24.7% preparatini ikki xil 10,0-15,0 l/ga sarf-meyorida qo'llab ko'rdik. Preparat shaftoli shirasiga qo'llanulgunga qadar daraxt barglaridagi shiralar soni aniqlab o'rtacha hisobda bitda bargda 30-35ta shira ekanligi, nazoratda esa 25-28ta shira aniqlandi. Biz tadqiqotlarimizni zararkunandalarning fenologik rivojlanish

bosqichlarini hisobga olgan holda, 10,0 l/ga 45 kun mobaynida dori sepilgandan keyingi xar 15 kunda samaradorligini aniqladik. Unga ko'ra birinchi o'n besh kunlikda samaradorlik 33,1% ni, ikkinchi o'n besh kunlikda 65,5% ni, uchinchi o'n besh kunlikda esa 83,6% samaradorlik aniqlandi. Gektariga 15,0 l/ga qo'llab ko'rilganda preparat sepilgunga qadar 33-38ta shira, nazoratda 25-28ta shira edi. O'n besh kunda 41,5% samaradorlik 30kunda 68,9%ni eng yuqori samaradorlik 45 kunga borib 85,2% tashkil etdi.

Urug' mevali bog'larda ENDJEO preparatining shaftoli shirasiga qarshi biologik samaradorligi

(Toshkent viloyati Toshkent tumani "Istiqlol olmalari" fermer xo'jaligi)

Tajriba variantlari	Preparatning sarf-meyori l/ga	O'rtacha 1,5m shoxdagi				samaradorlik, %		
		Dori sepil	Dori					
			15	30	45	15	30	45
Nazorat	—	25-	25-	25-	25-	—	—	—
Endieo 24.7%	10.0	30-	51.3	28.3	16.2	33.1	65.5	83.6
Endieo 24.7%	15.0	30-	47.5	25.4	7.1	41.5	68.9	85.2

Ushbu hududda olib borilgan tajriba tadqiqotimiz davomida bu preparat nafaqat shiralarga balki boshqa zararkunadalarga ham ta'siri ko'rildi. Ammo shu bilan birgalikda foydali entomafaglarga ham ta'sir etadi.

Xulosa. Shaftoli shirasi (*myzodes persicae*) ga qarshi "endjeo" preparati 15,0 l/ga sarf-meyorida qo'llanilganda 45 kunda 85,2% samaradorlik aniqlandi va bu bog' agrobiotsenozida mavsum davomida zararkunanda meyoridan ortiq uchraganda shiralarga qarshi qo'llash tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Корчагин В.Н. Вредители и болезни плодовых и ягодных культур. — Москва: «Колос», 1971. — С. 36-41.
2. Олимжонов Р.А. Энтомология. — Тошкент: «Ўқитувчи», 1977. — Б. 246-251.
3. Sulaymonov. B., Boltayev B.S. Sh.X.Abdualimov Bog', tokzor va dala ekinlarining zararkunanda, kasalliklari hamda ularga qarshi kurash choralari, usullari. 2018-yil. 5-9 . Navro'z nashriyoti.

4.Sulaymonov.B.A.,Kimsanboyev.X.X.,Esanbayev.Sh.

Mevali

bog‘

zararkunandalari va ularga qarshi biologik usulni qo‘llash

usullari.T.2015 y.71-74 .”Extremum-Press” MCHJ nashiryoti.

5. Sulaymonov. B.A., Boltayev B.S, Komilov Sh. Qishloq xo‘jalik ekinlarini

zararkunandalari, kasalliklari va ularga qarshi

kurash choralari. Qo‘llanma-T. 2013 y. 52-b.

6. Po‘latov.O.A.,Xurasanov.X.J.Mevali bog‘larni asosiy zararkunandalari. T,2015

y.Agroilm.12-15.

7. Sh.T.Xo‘jaev. Entomologiya, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari.

– Toshkent, “FAN”.